O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

# 13.00.02 – “TA‘LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI” IXTISOSLIGI BO‘YICHA MUSTAQIL IZLANUVCHILIKKA (PhD) KIRISH IMTIHON

# DASTURI

**Andijon – 2026**

# KIRISH

Mustaqil O‘zbekistonning chet mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalarining tez sur’atda rivojlanib va mustahkamlanib borishi chet tillarini puxta o‘qish va o‘rgatishni taqozo etmoqda. Chet tillarini puxta egallash zamonaviy ilm-fan, yutuqlaridan ta’lim texnologiyalaridan xabardor bo‘lish va zamon talabiga javob beradigan malakali mutaxassislar tayyorlashi nazarda tutadi.

Shuningdek, chet til yordamida komil inson shaxsini tarbiyalash ishiga o‘z hissasini qo‘shish ham metodika fani oldidagi vazifalardan biri.

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash jarayonlarining shaffofligini ta’minlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 696-son hamda 2021-yil 24-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limni olish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 606-son qarorlariga muvofiq ishlab chiqildi.

13.00.02 – “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) kiruvchilar ushbu yo‘nalishda o‘qituvchi kasbiy faoliyatiga nazariy hamda amaliy jihatdan tayyorlash kasbiy kompetensiyani shakllantirish  uchun zaruriy zamonaviy metodikaning asosiy muammolari chet tillarni o‘qitishning qisqacha tarixi va nazariyasi, nutqiy malakalarni shakillantirish, o‘quv jarayonini tashkil qilish yuzasidan  o‘z bilim va mahoratlarini namoyish etishlari talab etiladi. Shuningdek, talabgorlarni chet tillar o‘qitish amaliyotida duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlash, til aspektlari va nutq faoliyati turlariga oid malakalarni shakllantirish borasidagi zamonaviy innovatsion metodlardan xabardorligi, ularni amaliyotda qo‘llash strategiyalari haqidagi bilim va qarashlariga ham baho beriladi.

## TALABGORLAR BILIMLARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

- Talabgorlar metodika fanining maqsadi, vazifalari, fan sifatida shakllanishidagi asosiy bosqichlarni bilishligi;
- yoshga doir psixologiyaning o‘ziga xos xususiyatlari va uning gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi bilan aloqasi borasida tasavvurga ega bo‘lishi;

•gumanitar fanlar soxasidagi an’anaviy va yangi pedagogik texnologiyalarni bilishi;

•ta’lim jarayonida chet til o‘qitish metodikasi fanini unga asos bo‘lgan pedagogika, tilshunoslik va psixologiya fanlari bilan munosabatiga oid qonuniyatlarini bilishi va amalda qo‘llay olishi;

•chet til darsini an’anaviy va yangi pedagogik texnologiyalardan to‘laqonli foydalangan xolda olib borishi;

•dars berish jarayonida ta’limning zamonaviy texnik vositalari bilan ishlay olishi;

•yangi ilmiy adabiyotlar, darsliklarning elektron ko‘rinishlari va ARM kataloglaridan foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zarur.

**13.00.02 – “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka (PhD) qabul imtihonini o‘tkazishda qo‘llanishi ko‘zda tutilgan nazorat savollari:**

1. Ta’limda ilmiylik, sistemalilik va izchillik tamoyillari.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.
3. Chet til o‘qitish fanining dasturiy talablari.
4. Ta’limda texnologik yondashuv va bu xususdagi turli qarashlar.
5. Kommunikativ kompetensiyaning komponentlari.
6. Dars va uning xususiyatlari: (turlari, bosqichlari).
7. Darsdan va sinfdan tashqari fan ta’limining maqsadlari, tashkil qilish yo‘llari.
8. Yosh psixologiyasi. O‘quvchilarga individual yondoshish psixologiyasi.
9. Ijodiy tajriba faoliyati. Ta’limni insonparvarlashtirish va ijtimoiylashtirish.
10. CEFR ning ta’limdagi asosiy maqsad va vazifalari.
11. Chet til o‘qitish metodikasi fanining turlari, tasnifi, maqsadi, vazifalari.
12. Chet tilda tinglab tushunishga o‘rgatuvchi zamonaviy metodlar.
13. Chet tilda gapirishga o‘rgatuvchi metodlar tahlili.
14. Chet tilda yozuvga o‘rgatuvchi metodlar tahlili, yozuv texnikasi va yozma nutqqa o‘rgatish.
15. O‘qish, nutq faoliyati turi va o‘qitish vositasi sifatida.
16. Chet tilda leksikaga o‘rgatuvchi metodlar tahlili.
17. Chet til o‘qitishda grammatik ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.
18. Sinfdan tashqari ishlar va ularning maqsadlari, tashkil qilish yo‘llari.
19. Chet til o‘qitishning maqsadlari, tahlili.
20. Metodikaning asosiy va xususiy tamoyillari.

21. Chet til o‘qitishning mazmuni va uning komponentlari.
22. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari.
23. Pedagogik amaliyotning maqsadi, vazifasi, tashkil qilish yo‘llari.
24. Ta’limda nazoratning maqsadi va vazifalari.
25. Pedagogik texnologiyalarning asosiy turlari.
26. Chet til o‘qitishda “o‘qitish”, “o‘rgatish”, “o‘rganish” atamalariga differensial yondashuv.
27. Rivojlantiruvchi, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan modulli, muammoli, kontekstli, multimediali texnologiyalar.
28. Joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari, maqsadi, tashkil qilish yo‘llari
29. Chet tilda talaffuzga o‘rgatuvchi metodlar va usullar.
30. Chet til grammatikasiga o‘rgatishdagi qiyinchiliklar.
31. Chet til leksikasini metodik tayorlash: leksik material tanlash va leksik birlilarni dars jarayoniga kiritish usullari.
32. O‘qitish vositalari: asosiy va yordamchi vositalar.
33. Ta’limda ilmiylik, onglilik, faollik, tizimlilik tamoyillarining qo‘llanishi.
34. O‘qitish jarayonini tashkil etishga ta’sir qiluvchi omillar.
35. Chet til o‘qitishda bosqichlar masalasi va bu haqdagi turli qarashlar.
36. O‘qish nutq faoliyati turi va vositasi sifatida.
37. O‘rta ta’lim maktablarida chet til o‘qitishning bosqichlari.
38. Ta’lim muassasalarining tiplari, maqsadi, ta’limni tashkil qilish yo‘llari.
39. Umumiy va xususiy metodika va metodik tushunchalar tahlili.
40. Chet til nutq faoliyati turlariga o‘rgatuvchi innovatsion metodlar.
41. Mashqlar tipologiyasi.
42. Chet tillarni o‘qitishni bosqichlarga ajratish me’zonlari.
43. Ta’lim texnologiyalari va o‘qitish metodlari. Ta’limda texnologik yondashuv.
44. Ta’limda innovatsion yondashuv mohiyati va uning bosqichlari.
45. Ta’limni va mustaqil ta’lim maqsadi, vazifalari shakllari.
46. Ta’limning induktiv va deduktiv metodlari.
47. Ta’limning ma’rifiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalari.
    Ta’lim jarayonining tuzilishi maqsadlari va natijalari.
48. Didaktik tamoyillarni ta’lim jarayoniga tatbiq qilish.
49. Til tajribasini xisobga olish va og‘zaki nutqning ilgarilashi tamoyillari.
50. To‘garak, fakultativ mashg‘ulot va olimpiadalarni tashkil qilish.
51. Nazorat, uning turlari shakllari va maqsadi.
52. Chet til o‘qitishda motivatsiya.
53. O‘qitishni va uning natijalarini nazorat qilish metodlari.
54. Oliy ta’limda o‘qishni tashkil qilish.

55. Chet til o‘qitishda til va nutq mashqlarini qo‘llashning ahamiyati.
56. Chet til o‘qitishda audiolingual, audiovizual metodlarni qo‘llash.
57. Chet til o‘qitish metodikasining rivojlanish bosqichlaridagi metodlar.
58. O‘quvchilar bilimi, ko‘nikma va malakalarini tekshirish va baholash.
59. Individual topshiriq berishning linguopsikologik asoslari.
60. Fan bo‘yicha ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlarning maqsadi, vazifalari, ta’lim-tarbiya jarayonida tutgan o‘rni.
61. Oliy ta’limda ma’ruza darslarining maqsadi, turlari tashkil qilish yollari.
62. Leksikani metodik tipologiya qilish deganda nimani tushunasiz.
63. Ta’limda uzviylik va uzluksizlikni amalga oshirish masalalari.
64. Fanni o‘qitish metodikasining predmeti, maqsadi va vazifalari.
65. Fanni o‘qitish metodikasining tadqiqot usullari va ularning nazariy hamda metodologik asoslari.
66. Fanni o‘qitishdagi asosiy vositalar: darslik, didaktik va metodik qo‘llanma, jadval, model, sxema, kompyuter va boshqalar.
67. Fanni o‘qitishda axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanish.
68. Fanni o‘qitishning pedogagik asoslari va barkamol shaxsni voyaga yetkazish masalasi.
69. Fanni o‘qitishda o‘quv munozaralari va Keys texnologiyasidan foydalanish orqali ularda mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.
70. O‘quvchilarda mustaqil, ijodiy, tahliliy va tanqidiy fikr yuritish ko‘nikmalarini tarkib toptirish.
71. Didaktik prinsiplarning fanni o‘qitish metodikasiga tatbiq etish xususiyatlari.
72. Fanni o‘qitishning metodlari, ularning tasnifi.
73. Nutq faoliyatiga, turlariga o‘rgatishda innovatsion metodlardan foydalanish.
74. Metodika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.
75. Ta’limda onglilik, faollik tamoyili va ko‘rgazmalik yamoyillari.
76. Ta’limda nazariya va amaliyotning o‘zaro bog‘liqligi.
77. Ta’limda ko‘rgazmalilikdan foydalanishning linguopsixologik asoslari.
78. Nutqiy ko‘nikma va malakalar hosil qilish bosqichlari.
79. O‘quvchini mantiqiy fikrlashga o‘rgatish - ta’limning asosiy maqsadi ekanligi.
80. Metodika fanining psixologik asoslari.
81. O‘quvchilarni darslik va o‘quv qo‘llanmalari bilan ishlashga o‘rgatish.
82. O‘quvchilarning bilimi va nutqiy malakalarini nazorat qilish.
83. Dars rejasi va uning tarkibiy qismlari tahlili.
84. Fan ta’limidagi zamonaviy metodlar.
85. Chet tilda gapirishga o‘rgatishdagi lingvistik va ekstralingvistik qiyinchiliklar

tahlili.
87. Chet til o‘qitishda grammatik qiyinchiliklarni oldini olishga qaratilgan usullar va mashqlar.
88. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori.
89. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
90. Olingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashga qaratilgan usullar va mashqlar.
91. Chet til o‘qitishda tanqidiy fikrlashni shakllantirish usullari.
92. Ta’limda muammoli o‘qitish masalasiga oid ijobiy va salbiy fikrlar.
93. Ta’limda testlarning roli va o‘rini, turlari, testdan foydalanishning ijobiy va salbiy tomonlari.
94. O‘qitish metodikasining ruhshunoslik asoslari.
95. O‘qitish metodikasining predmeti va asosiy metodik tushunchalar.
96. Chet tilda o‘qishga o‘rgatuvchi mashqlar tahlili.
97. Chet tilda yozuv va yozma nutqqa o‘rgatuvchi mashqlar tahlili.

## 13.00.02 – “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” ixtisosligi bo‘yicha og‘zaki suhbatni baholash mezoni

Mazkur ixtisoslik bo‘yicha kirish sinovi mavjud o‘quv dasturi asosida tuzilgan variantlar savollariga og‘zaki ravishda javob qaytarish tarzida amalga oshiriladi.

Har bir variantda **4 tadan** savol bo‘lib, mazkur savollar nomzodlarning bakalavriat, magistratura va mustaqil izlanuvchilikda o‘qigan fanlari hamda tayyorlagan ilmiy-tadqiqot ishi yuzasidan tuziladi va jami javoblar «0» baldan «100» ballgacha baholanadi.

Variantdagi 1-, 2-, 3-savollar uchun maksimal **15 balldan,** 4-savol uchun maksimal **55-ball** etib belgilangan.

Variantdagi 1-, 2-, 3-savollarga berilgan javoblarning mazmuniga qarab ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni to‘liq va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq holda aniq yoritilgan, mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berilgan, javoblarda mantiqan yaxlitlikka erishilgan, stilistik xatolarga yo‘l qo‘yilmagan holda umumiy xulosalar chiqarilgan bo‘lsa, **12-15 ballgacha** qo‘yiladi.
2. Mazkur savolning mazmuni yaxshi yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, javob to‘g‘ri berilgan, mavzular asoslangan. Ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, **8-11 ballgacha** qo‘yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o‘rtacha yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan kamroq foydalanilgan, savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan bo‘lsa **4-7 ballgacha** qo‘yiladi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmagan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmagan, umuman javob berilmagan yoki noto‘g‘ri javob va ma’lumot berilgan bo‘lsa **0-5 ballgacha** qo‘yiladi.

| **№** | **Umumiy ball** | **Baho** | **Mustaqil izlanuvchilikka (DSc) kiruvchining bilim darajasi** | **Xususiy ball** |
|---|---|---|---|---|
| 1. | 12-15 | A’lo | Berilgan savollar mazmunan aniq yoritilib mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berilishiga;<br>Javoblar mantiqan yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega. | 14-15<br>13-14<br>12-13 |
| 2. | 8-11 | Yaxshi | Javoblar to‘g‘ri berilgan va mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan;<br>Javoblarda mustaqil izlanuvchilikka kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi;<br>Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega. | 10-11<br>9-10<br>8-9 |
| 3. | 4-7 | Qoni-qarli | Savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan;<br>Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatilgan;<br>Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan tasavvurga ega biroq tahlil yetarli emas. | 6-7<br>5-6<br>4-5 |
| 4. | 0-4 | Qoni-qarsiz | Savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega emas;<br>Umuman javob berilmagan;<br>Noto‘g‘ri javob va ma’lumot berilgan. | 0-4 |

Variantdagi 4-savol yuzasidan berilgan javoblarning mazmuniga qarab ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni to‘liq va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq holda aniq yoritilgan, mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berilgan, javoblarda mantiqan yaxlitlikka erishilgan, stilistik xatolarga yo‘l qo‘yilmagan holda umumiy xulosalar chiqarilgan bo‘lsa, **40-55 ballgacha** qo‘yiladi.

2. Mazkur savolning mazmuni yaxshi yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, javob to‘g‘ri berilgan, mavzular asoslangan.

Ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, **25-39 ballgacha** qo‘yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o‘rtacha yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan kamroq foydalanilgan, savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan bo‘lsa **10-24 ballgacha** qo‘yiladi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmagan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmagan, umuman javob berilmagan yoki noto‘g‘ri javob va ma’lumot berilgan bo‘lsa **0-9 ballgacha** qo‘yiladi.

| **№** | **Umumiy ball** | **Baho** | **Mustaqil izlanuvchilikka (DSc) kiruvchining bilim darajasi** | **Xususiy ball** |
|---|---|---|---|---|
| 1. | 40-55 | A’lo | Berilgan savollar mazmunan aniq yoritilib mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berilishiga;<br>Javoblar mantiqan yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega. | 50-55<br>44-49<br>40-44 |
| 2. | 25-39 | Yaxshi | Javoblar to‘g‘ri berilgan va mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan;<br>Javoblarda mustaqil izlanuvchilikka kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi;<br>Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega. | 35-39<br>29-34<br>25-29 |
| 3. | 10-24 | Qoni-qarli | Savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan;<br>Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatilgan;<br>Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan tasavvurga ega biroq tahlil yetarli emas. | 20-24<br>15-19<br>10-14 |
| 4. | 0-9 | Qoni-qarsiz | Savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega emas;<br>Umuman javob berilmagan;<br>Noto‘g‘ri javob va ma’lumot berilgan. | 0-9 |

## Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro‘yxati

### Asosiy adabiyotlar:


1. Жалолов Ж.Ж., Махкамова Г.Т., Ашуров Ш.С. English Language Teaching methodology-T.: 2015
2. Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси.- Т.: 2012.
3. Ахмедова Л.Т., Нормуратова В.И. Teaching English practicum / Практикум по методике преподавания английского языка - Т.: 2011.

4. Хошимов Ў., Яқубов И. Инглиз тили ўқитиш методикаси – Т.: 2003.

## Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Тошкент, “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. - 29 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. - 47 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. - 485 б.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда
5. Мирзиёев Ш.М. Танқидий тахлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - хар бир рахбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январ, №11.
6.Ахмедова Л.Т. Роль и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. –Т.: 2009.
7.Мильруд Р.П. Методика преподавания английского языка. English language methodology: Учебное пособие для вузов. 2-изд. –Москва. Дрофа, 2007.
8.Common European Framework of Reference for languages: Learning, Teaching, Assessment. The Council of Europe. –Strasbourg, 2005.
9.Rogers and Richards. Approaches and methods in Language Teaching. Cambridge University press.
10.Harmer Jeremy. The practice of English language Teaching. –Cambridge, 2007.
11.Маҳкамова Г.Т.Алимов Ш.С., Innovative pedagogical Technologies in the English Language Teaching. –Tashkent, 2017.
12.Алимов Ш.С. Innovative technologies of improving speech skill in English. – Тошкент, 2020.

## Internet saytlari

1. www.gov.uz. – Ўзбекистон Республикаси хукумат портали
2. www.ziyonet.uz
3. http://iteslj.org/
4. http://iteslj.org
5. http://iteslj.org
6. http://www.teachingenglish.org.
7. http://www.teachermentors.com
8. http://www.inspiringteachers.com
9. http://teachnet.org

10. http://www.alt-teachercert. org
11. http://www.tv5.org/
12. http://www.rfi.fr/
13. http://lefildubilingue. org/
14. http://www.cafepedagogique.net
15. http://vocabularyprofile.com
16. www.google.es
17. www.marco.ele
18. www.cervantes.es